

**Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan  
Davlat umumta'lim maktabi**



**Boshlang'ich sinf o'qituvchisi Tosheva  
Dildoraning 1-sinf uchun savod o'rgatish  
fanidan “ V tovushi va V v harflarini  
mustahkamlash” mavzusidagi ochiq dars  
ishlanmasi**

**Toshkent**

**Sana:**

**Fan:** Savod o`rgatish

**Mavzu:** V tovushi va V v harflarini mustahkamlash. “Aka-singil suhbat” matni

**Mavzuga oid tayanch tushunchalar:** Ona-Vatan, ona yurt, tug`ilgan joy, voyaga etish.

**Ajratilgan vaqt:** 45 daqiqa

**Mavzuning qisqacha ta`rifi:** Matnda Vatan –bu biz yashab turgan ona yurt ekanligi, u ona kabi bizga mehribonligi haqida tushuncha beriladi.

**O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:**

**Metod:** Izohli va ifodali o`qish, mashq qilish, namoyish etish, munozara

**Shakl:** Yakka, guruh bilan ishlash.

**Jihoz:**

**Nazorat:** O`quvchilarning dars jarayonida faolligi kuzatib, hisobga olib boriladi.

**Darsning maqsad va vazifalari:**

**Maqsadlar:**

**1. Ta`limiy maqsad:** O`quvchilarning V tovushi va V v harflari yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash, “Aka-singil suhbat” matni bilan tanishtirish.

**2. Tarbiyaviy maqsad:** O`quvchilarni Ona-vatanni sevishtirishga o`rgatish orqali vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ta`lim olish uchun yaratilgan sharoitlardan unumli foydalanishga undash orqali bilim olishga qiziqishlarini oshirish.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad:** O`quvchilarning og`zaki nutqlari, so`z boyliklarini oshirish, bo`g`inlab o`qish ko`nikmalarini rivojlantirish.

**Kutilayotgan natija:**

Dars yakunida o`quvchilar Vatan haqida to`liq ma`lumotga ega bo`ladilar. V tovushi va V v harflari yuzasidan bilimlari mustahkamlanadi, sidiq`a o`qish ko`nikmalari rivojlanadi.

**Dars jarayoni va texnologiyasi**

| Ishning nomi                                         | Bajariladigan ish mazmuni                                                                         | Metod                                   | Vaqt      |
|------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------|-----------|
| 1-bosqich.<br>Tashkiliy qism                         | O`quvchilar davomati ahiqlanadi.<br>Sinfning darsga hozirligi tekshiriladi.                       | “Tez javob ”<br>didaktik o`yini         | 2 daqiqa  |
| 2-bosqich.<br>Ehtiyoj(refleksiya)<br>larni aniqlash. | Dars davomida rioya qilish lozim<br>bo`lgan qoidalar belgilanadi.Dars<br>shiori ishlab chiqiladi. | Munozara                                | 2 daqiqa  |
| 3-bosqich.<br>Darsning borishi                       | 1. O`tilgan mavzu yuzasidan savol-<br>javob, tarqatma materiallar bilan<br>ishlash.               | Savol-javob,<br>“Nomini yoz”<br>mashqi. | 5 daqiqa  |
|                                                      | 2. Mustahkamlash. “Vatan ”<br>mavzusida kirish suhbat.                                            | Namoyish.                               | 3 daqiqa  |
|                                                      | 3Matn ustida ishlash. Rollarga bo`lib<br>o`qitish.                                                | Sidiq`a o`qish                          | 15 daqiqa |
|                                                      | 4.Matn asosida so`zlardan gap hosil<br>qilish.                                                    | Namoyish                                | 5 daqiqa  |
| 4-bosqich.<br>Guruh bilan                            | O`quvchilar guruhga bo`linib<br>o`qituvchining topshirig`i asosida                                | Rasm ishlash                            | 10 daqiqa |

|                   |                                                           |               |          |
|-------------------|-----------------------------------------------------------|---------------|----------|
| ishlash.          | rasm ishlaydilar. Krossvord yechish.                      |               |          |
| Muhokama.         | Dars yakunida o`rganilganlarni muhokama qilish.           |               | 2 daqiqa |
| Kengaytirish.     | Matnni ifodali o`qish topshirig` beriladi.                |               |          |
| Rag`batlantirish. | O`quvchilar darsdagi faolligiga qarab rag`batlantiriladi. | Tushuntirish. | 1 daqiqa |

## I. Tashkiliy qism.

Navbatchining axborati, o`quvchilarning darsga hozirligi tekshiriladi.

## II. Dars shiori ishlab chiqiladi:

**“Ona bitta, Vatan yagona”**

## III. Darsning borishi.

1. O`tilgan mavzu yuzasidan savol-javob, tarqatma materiallar bilan ishlash.

Darslikning 58-betida berilgan so`zlarni o`qitish, unli va undosh harflarni aniqlash.

|           |               |                  |
|-----------|---------------|------------------|
| <b>va</b> | <b>va-tan</b> | <b>Na-vo-iy</b>  |
| <b>ve</b> | <b>vo-diy</b> | <b>Gav-har</b>   |
| <b>vi</b> | <b>to-vus</b> | <b>Vo-hid</b>    |
| <b>vo</b> | <b>to-vuq</b> | <b>Mav-ju-da</b> |
| <b>vu</b> |               |                  |

Vatan – 2 ta unli, 3 ta undosh, 2 ta bo`g`in.

Vodiy-2 ta unli, 3 ta undosh, 2 ta bo`g`in.

Navoiy-3 ta unli, 3 ta undosh, 3 ta bo`g`in.

Mavjuda-3 ta unli, 4 ta undosh, 3 ta bo`g`in...

Vatan, mening onamsan,  
Issiq quchog`ing.  
Olamda yagonamsan,  
Aziz tuprog`ing.  
Kelajaging buyukdir,  
Yashna doimo.  
Vatanim, seni bugun  
Tanidi dunyo.



Tarqatma materiallar bilan ishlash. O`quvchilar berilgan rasmlardagi so`zlarni yozib chiqadilar.



□□ - □□ - □□



□□□ - □□



□□□ - □□□




□□ - □□



□□ - □□ - □□

2. “Vatan ” mavzusida kirish suhbat.



3. Matn ustida ishlash. Rollarga boʻlib oʻqitish.



### AKA-SINGIL SUHBATI

Viloyat akasi Valiga savol berdi:

– Aka, Vatan nima? Vatanni nima uchun onaga oʻxshatadilar?

Vali javob qaytardi:

– Vatan – bu biz yashab turgan ona yurt. Vatan onamiz kabi mehribon. Biz uning bagʻrida voyaga yetamiz.

4. Matn asosida soʻzlardan gap hosil qilish.



Soʻzlarni oʻz oʻrniga qoʻyib gaplar hosil qilish va yozish.

**Vatan onamiz kabi mehribon.**



uning

Biz

yetamiz.

voyaga

bag`rida

**Biz uning bag`rida voyaga yetamiz.**



5. Guruhlar bilan ishlash.

O`quvchilar guruhga bo`linib o`qituvchining topshirig`i asosida rasm ishlaydilar. Topishmoqlarning javoblari asosida krossvord yechish.

|    |   |   |   |   |   |    |   |   |   |
|----|---|---|---|---|---|----|---|---|---|
| O` | Q | I | T | U | V | CH | I |   |   |
|    |   |   |   | B | A | Y  | R | O | Q |
|    |   |   | K | I | T | O  | B |   |   |
|    |   |   | S | O | A | T  |   |   |   |
|    |   | K | A | R | N | A  | Y |   |   |

#### IV. Dars yakuni

Dars yakunida o`rganilganlarni muhokama qilish. Vatan, ota-ona oldidsagi farzandlik burchi haqida o`quvchilarning fikrlarini aniqlab, darsga yakun yasash. O`quvchilar chizgan rasmlari namoyish etiladi.

#### V. Rag`batlantirish.

O`quvchilar darsdagi faolligiga qarab rag`batlantiriladi.

